



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Bu yondashuvlar nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning nutq boyligini, estetik dunyoqarashini va vatanparvarlik ruhini ham tarbiyalaydi. Shunday qilib, adabiyot darslari nafaqat bilim manbai, balki qalbni tarbiyalovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Олий ўқув юртларида ўзбек шеърияти поэтикаси асосларини ўрганиш. – Т.: ДДҚ, 1997. – Б. 32–268.
2. To'xliyev B. Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish (Mumtoz adabiyot misolida) monografiya. – Т.: Fan, 2013. – Б. 142.
3. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т.: "Sharq", 2020. – Б. 240.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014.
5. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
6. Niyozmetova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'lif mavzulari bo'yicha metodik ko'rsatmalar. Metodik ko'rsatma. – Toshkent, 2021.
7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Barkamol fayz mediya" nashriyoti, 2018.
8. Yo'ldoshev Q. va boshq. Badiiy tahlil asoslari. – Т.: Kamalak, 2016. – Б. 119.
9. Mirzayeva Z, Jalilov K. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Т.: Academ Space, 2024. – Б. 130.
10. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 272 b.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/RYFR8118

FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Nomozova Dilobar Suyun qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek adabiyoti ta'lifi yo'nalishi 1-kurs doktoranti
dilobarxonnomozova@gmail.com 998935920064*

ANNOTATSIYA

Maqolada modern she'riyatning o'ziga xos jihatlari, xususan Faxriyor she'riyatiga diqqat qaratildi. Maktab o'quvchilariga Faxriyor she'riyatini o'tish jarayonida kognitiv yo'l bilan, keyslar orqali tushuntirishning afzallik jihatlariga to'xtalib o'tildi. Shuningdek "She'r zavqi" metodining o'quvchilar tafakkuri, tanqidiy fikrlashga undashi bilan ahamiyatli ekanligi keltirildi.

Kalit so'zlar. Modern she'riyat, Faxriyor she'rlari, kognitiv tahlil, keyslar, umumiylilik va xususiylik, original o'xshatishlar, "She'r zavqi" Metodi

ABSTRACT

The article focused on the unique aspects of modern poetry. Especially Fakhriyor's poetry. The advantages explaining Fakhriyor's poetry of schoolchildren in a cognitive way through cases were discuss was also mentioned that the method of poetry enjoyment is a important for encouraging students' thinking and critical thinking.

Key words. Modern poetry, Fakhriyor's poems, Cognitive analysis, cases, Generality abd specificity orginal smiles, "Poetry pleasure" method.



Kirish. Adabiyot ta'limalda bugungi kunga kelib bir qator metod va texnologiyalardan foydalanishning asosiy sababi albatta o'quvchilaning dunyoqarashini, tanqidiy, tahliliy fikrlashini shakllantirishdan iborat. "Aslida adabiyot o'qitishning bosh yo'nalishi ta'larning turli bosqichlarida o'quvchilar ongiga badiiy asarning mo'jizakor ta'sir kuchini amaliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan"[1]. Darhaqiqat, adabiyot so'z san'ati hisoblanar ekan, adabiyot ta'laming maqsadlaridan biri ham o'quvchilarda so'zning qudratini, tovlanishlarini, so'z ifodalayotgan mazmunni chuqurroq his ettish, til imkoniyatlaridan samarali foydalanish salohiyatini oshirishdan iborat. Ayniqsa, she'riyatni anglatish, o'quvchi qalbini she'riyatga oshno etish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Chunki mobil aloqa, internet texnologiyalar rivojlangan bir pallada o'quvchilarning ko'pi kitobni emas, ming afsuski, ijtimoiy tarmoqlar, mobil o'yinlari, kompyuter o'yinlarini tanlamoqda. Buning natijasida esa fikrlashida, so'zlashida, dunyonи anglashida sayozliklar yuzaga kelmoqda. Maktab ta'limi, o'qituvchilar oldida turgan muhim masala ham aynan sifatli ta'lim bera olishdadir.

Maktab darsliklariga kiritilgan, tushunilishi murakkab deya hisoblanayotgan modern yo'nalishdagi she'rlarni qay tarzda o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazib bera olish adabiyot metodikasini oldida turgan muammolardan biridir. Quyida modern she'riyatning mumtoz vakillaridan hisoblangan Faxriyor she'rlari orqali buni ko'rib chiqamiz.

Manbalar tahlili. Hozirgi o'zbek adabiyotini modern yo'nalishdagi asarlarsiz tasavvur qilish mushkul. Bugungi kunga kelib modern yo'nalish yosh ijodkorlarni ham o'ziga ohanrabodek maftun etmoqda. Sababi ko'ngilning inja, murakkab, isyonkor po'rtanalarini bu usulda ifodalash anchayin osonroq. "Modernenestlar olamni mantiqqa tayanmagan hissiy "tafakkur" asosidagina to'laqonli tushunish mumkin deb hisoblaydilar. Ular bunda mantiqiy tahliliy mushhohadaga qarshi turib, irratsional ongni yetakchi sanaydilar"[2]. Darhaqiqat, bugungi zamonaviy she'riyat uchun ham shaklan, ko'ra ham yangicha fikr, g'oyalar ahamiyatga ega. Taniqli adib Nazar Eshonqul she'riyatni shunday ta'riflaydi: "Men she'rni timsollar tilida gaplashish deb tushunaman. Ko'z oldida turgan narsa hodisaning yangi timsoli -metaforasini, yangi manzarasini, yangi ko'rinishini, yangi qirrasini, retmikada bera olish san'ati-men uchun shoirlilik"[3]. Demakki, yangi fikrni yangicha ko'rinishda, boshqacha fokusda ko'rsata olish ham modern she'riyat uchun ahamiyatlidir.

O'zbek modern she'riyatida o'zining mumtoz asarlarini yarata olgan ijodkorlardan biri Faxriyordir. "Ayolg'u", "Geometrik bahor" "Izlam" singari to'plamlaridagi she'rlari bilan kitobxonni o'zgacha fikrlashga, o'zgacha tuyish, his etishga undaydi." Modern she'r hatto an'anaviy shaklda yozilganda ham, hijo, turoq qofiyalardan hosil bo'ladigan ohang emas, ayni o'sha original poetik fikr, tuyg'u manzara, ular harakatidan vujudga keladigan ohang o'quvchi qalbida aks-sado beradi." [4]. Ayrim o'quvchilar tashqi tomondan qofiyasiz, sarbastda yozilgan she'rlarni hammasini modern she'riyatga kiritadi. Ammo bunda mag'zi



to'q va puchlarini ajratib olishning asosiy vositasi bildirilayotgan fikr, mulohazalarning ham o'zgacha ekanligiga ahamiyat qaratishdan iborat.

Faxriyor she'riyatini o'rganish jarayonida quyidagi metodlarni tavsiya qilamiz:

1.1 Darsni uch asosiy qismga ajratib olishimiz mumkin:

1. Kirish. (She'rni o'rganishgacha bo'lgan jarayon)

2. Asosiy qism (She'rni o'rganish jarayoni)

3. Xulosa (She'rni mustaqil anglay olish jarayoni)

Avvalo o'quvchilarni she'r o'rganish jarayoniga olib kirish uchun „She'r zavqi” metodini tavsiya etamiz. Ushbu metoddan boshqa she'riyat darslarida ham foydalansa bo'ladi. Eng avval she'rlarni tahlil qilishdan oldin o'tmoqchi bo'lgan she'rimizda qo'llangan so'zlarni doskada yozamiz va o'quvchilardan shu so'zlarni qatnashtirib erkin vaznda she'r yozishi kerakligini aytamiz. Masalan, ilk she'rimizda qo'llanilgan so'zlardan: Yurak, uzlat, Yassaviy, mukofot, Usmon Nosir, ozodlik... Vaqt belgilaymiz va barcha o'quvchilarning yozganlarini tinglaymiz. Shart oxirida “Eng original tashbeh”, “Eng zo'r g'oya”, “Oxirigacha tugallangan fikr” kabi yo'naliishlarda g'oliblarni aniqlaymiz. Keyin shoir she'ri bilan tanishsak, o'quvchilar uchun ham g'oyatda qiziqarli bo'ladi. Chunki, qizishib olgan o'quvchilar she'r tahlilini ham yaxshiroq tushunishadi. Biz ushbu metodda she'rning sarlavhasini (M: Oqlangan olma) yoki, birinchi misrasini yoki jumlanı berishimiz mumkin. Bizningcha, ushbu metod, o'quvchilarda yangicha fikrlarni shakllantirishda, tasavvurini kengaytirishda, tafakkur qilishida g'oyatda ahamiyatlidir. Qolavers, bir-birlaring she'rlarini tinglash jarayonida bitta so'zga turli tomonidan yondashish mumkinligining guvohi bo'lishadi.

Asosiy qismda she'r matni bilan chuqurroq tanishib chiqiladi. Faxriyor she'rlari maktab darsliklariga kiritilgan bo'lsa-da, ammo anglash, his etish uchun oddiy o'qishning o'zi kifoya qilmaydi. Biz an'anaviy yo'naliishdagi she'rlarni faqatgina o'qib his etsak, modern yo'naliishdagi she'rni tushunish uchun, ham tuyg'u, ham tafakkurni ishga solishimiz lozim. Avvalo o'quvchiga taqdim etish uchun shoir she'rlarini saralab, yoshi fikrlashini ham hisobga olish muhim. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, shoir she'rlarini yuqori sinfda o'qiydigan o'quvchilar uchun havola etish maqsadga muvofiq.

Quyidagi she'rga e'tibor bersak:

Yurak uzlatnishin, Yassaviy kabi

Yolg'onchi dunyoni kechirib yashar.

Yurak –

Usmon Nosirga

hayotligida

berilgan yakka-yu yolg'iz mukofot.

*Yurak qushdir qafasi bilan birga tug'ilgan
qush.*

*Patlarini qonga botirib,
she'rlar yozar ozodlik haqda.*



Ushbu she'rda kognitiv yo'l bilan yurakni nimalarga o'xshatilayotganini sinfdagi o'quvchilar bilan birgalikda topishga harakat qilamiz:

1. Uzlatnishin

2. Mukofot

Yurak

3. Qafasi bilan birga tug'ilgan qush

She'rni nimalarga o'xshatilayotganligi bilib oldik. Endi tahlilga chuqurroq kirishamiz. O'quvchilarga savol beramiz. Nega yurak Yassaviy singari uzlatnishin? Yassaviyning hayotini o'rganish davomida mutasavvif umrining so'nggi yillarini uzlatda, yer ostida o'tkazganligini bilamiz. She'r yaratilgan sanaga e'tibor bersak 1987-yil yozilganligining guvohi bo'lamiz. Demakki, o'sha vaqtida yuraklardagi tuyg'ular, isyonlar, g'alayonlar yuzaga chiqarilmasdan uzlatga chekingan. Bunda har qanday insonning qalbi emas, yoniq qalblilarning yuraklari nazarda tutilmoqda. Keyingi satrlarda Usmon Nosir nomi tilga olinadi. Qatag'onga uchragan otash qalbli shoir Usmon Nosirga hayotligida hech qanday mukofot berilmagandi. Ammo uyg'oq yurakning o'zi unvon-u, mukofotlardan ham buyukroq mukofot edi. Usmon Nosir qalamiga mansub shu nomdagi she'rni o'quvchilardan so'raymiz, chunki Usmon Nosir she'riyati bilan ular yaqindan tanishishgan:

*Yurak, sensan, mening sozim
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zimga oyni berkitding.
Yurak sensan ishqibozim...*

She'rning oxirgi jumlalari quyidagicha yakunlanadi:

*Itoat et!
Agar sendan
Vatan rozi emas bo'lsa,
Yoril chaqmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli tamom o'lsam!*

Ikkala she'rni qiyoslaymiz. Umumiyligi mazmunidagi umumiylilik va xususiylik jihatlarini farqlaymiz. Usmon Nosir o'zing she'rida faqatgina o'z yuragini olovli to'lqinlarini, mavjolarini bayon qilmoqda. Faxriyor esa o'zi bilan bir vaqtida yashayotgan yoniq yuraklilarning dardlarini oydinlashtiryapti.

Keyingi satrlarda mazmun yanada ochiqlanadi. Endi yurak qafasi bilan tug'ilgan qushga o'xshatiladi. Ya'ni, qafasi bilan tug'ilgan qush o'sha davrda yashayotgan erksiz, hur fikrlarsiz umr kechirayotgan xalqning timsoli. Ozodlik, mustaqillikning badali esa qondir.



Yana bir she'riga diqqat qaratamiz:

Oqlangan olma

Mirza bo'lsa terakning oti,

Layli emas Majnun bo'lsa tol.

Demak, ayol-olma daraxti.

O'z-o'zidan demak u ayol.

Avvalo, she'rda erkaklar nimaga o'xshatilayotgani, ayollar nimaga o'xshatilayotganiga diqqat qaratamiz. O'quvchilar yordamida aniqlaymiz. G'aroyib o'xshatishlar qo'llangan. Yigitlarni chiroyli tarif bilan o'z nomlari bilan ataladigan mevasiz daraxtlar oti bilan nomlishi g'oyatda ustalik bilan topilgan tashbeh. Endi ayol ta'rifiga keladigan bo'lsak, mevali daraxt ya'ni olmaga qiyos etiliyapti. Biz shu vaqtgacha o'qigan mumtoz va barmoq vaznida yoziladigan she'rlarda odatda, olmaga suluv qizlarning yuzi, dudog'i, yanog'i kabilar qiyos etilgan. Ammo Faxriyor she'rida birato'la olma daraxtining o'ziga o'xshatiliyapti. Bunda ham butun va qism jihatidan qaraydigan bo'lsak, shoirning tashbehi butunni ifodalaydi. Ya'ni, mevali daraxt, olma. Endi savol tug'ilishi tabiiyki, nega boshqa mevali daraxtlar emas olma tanlangan? Buni biz olis moziydan qidirsak to'g'riroq bo'ladi. Rivoyatlarda aytishicha, Odam Ato va Momo Havvoga ta'qiqlangan mevali daraxt olma deb kelgan o'rinalar ham bor. Ushbu mevani aynan Havvoning taklifiga binoan tatib ko'rishadi va jannatdan badarg'a bo'ladilar. Demakki, shoir she'rida qo'llangan tashbeh bejizga emas. She'r nomiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, aynan oqlangan so'zi qo'shilgan. She'rning keyingi misralarini o'qish chog'ida go'zal xushbo'y olmaning ildizlari uy-ro'zg'or tashvishlariga botib ketganligi, hatto sochlarini tarab qo'yishgada vaqt yo'qligi keltirib o'tiladi. Ya'ni Havvo jannatdagi olmani yeb qo'yganligi badalini yer yuzida to'lamoqda, gunohi oqlanmoqda.

Quyidagi she'rini ham ko'rib chiqamiz:

Kampir sandig'idan nimadir qidirayotib

Lash-lushlar orasidan taxlab naftalinlab

yaxshi kunlarga yashash uchun olib qo'yilgan

yap-yangi umrini topib olsa deng

esidan ham chiqib ketgan ekan

yashalmagan umri borligi

*Kiyimlikka bichilmagan matoday yashalmagan
umrini*

qo'liga olib aylantirib qaradi obdon

kuya tushmabdi hartugul

g'ijimlangan joylarini aytmasa

hovlidagi dorga yoydi umrini

hechqursa

burqib turgan naftalin hidi uchib ketadi



*na ayriliq na quvonchning ko'zyoshlariga
biror qur ivib ko'rmagan yoki etagiga
bolasi hech qachon siyib qo'ymagan ayoldek
umr shamolda ma'nisiz hilpiray boshlaydi
mag'lub vatanning
hali tayoqdan yechib olinmagan bayrog'i kabi
kampir xo'rsinadi
nima qilarini bilmas boyaqish
tashlab yuborishga ko'zi qiymaydi
hali yashalmagan
yap-yangi
yirtib tarqatsami boshqalarga ko'zi
ochiqligida
yo berib yuborsami bitta yarimta xudodan kun
tilab yotgan bemorga*

Kognitiv tahlil asosida „yashalmagan umr” ni nimalarga o'xshatilayotganini aniqlaymiz.

Yashalmagan umr

1. Kiyimlikka bichilmagan matoday
2. Na ayriliq, na quvonchning ko'z yoshlariga bir qur ivib ko'rmagan
3. Bolasi hech qachon siyib qo'ymagan ayoldek
4. Mag'lub vatanning hali yechib olinmagan bayrog'i kabi

She'r tahliliga kirishadigan bo'lsak, bunda sandiq ramziy ifoda sifatida qo'llanilgan, ya'ni umrning ramzi. Kampir o'ylanib turar ekan, yashalmagan umri borligiga guvoh bo'ladi. Yashalgan umri-kampirning o'zi uchun emas, bala-chaqasi, nevaralariga, atrofidagi insonlarga bag'ishlangan umri. Aslidayam, o'zbekning zahmatkash ayollari o'zlariga berilgan umrning ko'p qismini atrofidagilar, oila a'zolarining tashvishlari deya o'tkazadilar. Yashalmagan umr o'xshatilayotgan narsalarga e'tibor qaratsak, mazmun yanada oydinlashadi. Ya'ni, na ayriliq, na quvonchning ko'z yoshlariga ivib ko'rmagan, bolasi siyib qo'ymagan ayoldek... Kampir bolalari uchun yashagan, g'am chekkan, quvongan, ular go'dak ekanligidayoq o'z umrini bolalarining kelajagi uchun baxshida qilgan. Oxirgi o'xshatishga diqqat qaratadigan bo'lsak, mag'lub vatanning hali yechib olinmagan bayrog'idek deganda, kampir umri nihoyalab qolganinga ishora bor. Ammo shunda ham g'am-tashvishlarsiz yashalmagan umrning kampirga keragi bo'lmayapti, birorta bemorga berib yuborishni o'layapti. Nega? Chunki kampir o'zi uchun yashash nimaligini bilmaydi. Bolalarining tashvishi bilan o'tgan umridan rozi, boshqacha yashash unga kerak emas. She'rni talil qilganiz sayin, chuqurroq mushohada, chuqurroq o'ylashga majbur etadi. Aslidayam har bitta o'zbek onasining umumlashama obrazi yashiringan



kampirda. Shoir ayollar umrini hech kimnikiga o'xshamaydigan, insonni o'yantiradigan tashbehlar orqali ifodalaydi.

Yuqoridagi uchala she'rni tahlil qilish asnosida an'anaviy yozilgan she'rlarda qo'llangan tashbehlardan umumiylilik, xususiylikka ko'ra farqli jihatlarini ; o'zbek ayoli timsoliga boshqacha, original o'xshatishlar orqali yondashganligining guvohi bo'ldik.

Xulosa qismida o'quvchilarning o'ziga Faxriyor she'rlaridan namunalar beriladi. Bunda taqdim qilinayotgan she'rlarning matnida ayrim so'zlar o'rni bo'sh qoladi. O'quvchilardan talab, shu bo'sh o'rirlarni to'ldirib berishlari kerak.

1.2. Loyihalar tarzida kichik guruhlarga bo'lingan o'quvchilar o'rtasida taqsimlanishi maqsadga muvofiq. Keyslar tuzish o'qituvchining mahoratiga ham bog'liq. Quyida namunalarni taqdim qilamiz. Har bir guruh uchun alohida keys topshiriqlari tuziladi.

"Darvesh" she'ri (Rauf Parfi xotirasiga)

She'rning mohiyatini to'laqonli ochish maqsadida Rauf Parfi hayoti va ijod yo'lini o'rganish	Darveshlar kimlar va ular qanday hayat kechirganligini o'rganish	She'r asosida Rauf Parfi hayoti va ijodi, darveshlar haqidagi bilimlarni umumiylashtirib kichik sahna ko'rinishi tayyorlash(rasm, ko'rgazmali qurollar, aktyorlik mahorati, musiqa)
--	--	---

"Online hayat" she'ri

Telegram, Instagram, Fasebook, You tobe kabi ijtimoy tarmoqlarning foydalari va zararlari haqida ma'lumot to'plash

Tengdoshlarining kun tartibini o'rgangan holda qancha vaqt internetda vaqt sarflashlarini o'rganish

Ijtimoiy tarmoqlar bo'lmaganda hayatda nimalar yaxshiroq, nimalar yomonroq bo'lishi haqida fikr yuritish

Shoirning fikrlariga o'z munosabatini bildirish

Yoki shoirning bitta she'rini tanlab olamiz. Masalan "Online hayat". Har bir guruh uchun oq qog'ozga bittadan nusxa tayyorlaymiz. Tarqatilgan qog'ozga fikrlarini yozishlari mumkin.



1-vazifa. She'rni ovoz chiqarib o'qiyimiz bir marta. Har bir guruh o'quvchilariga she'r tarkibida uchragan va o'zlari uchun qiziqarli deb hisoblangan 10 ta so'zni tagiga chizishlarini so'raymiz. Nega aynan shu so'zlar tanlanganligini so'raymiz. Keyin she'rdagi tushunmagan jumboqli satrlarni topib belgilashlarini so'raymiz. Har bir guruh she'rdan 3 tadan misol topishi kerak. Jumboqlarni umuniy o'rtaga tashlab, umumiy javoblarni tinglaymiz. 1. Hayotiy vaziyatlar bilan bog'laymiz. Bunda o'qituvchi yo'naltirib turuvchi vazifasini bajarishi lozim. Masalan, she'rda qizning laykka tur mushga chiqishini tushunishmadi. Xo'sh bugungi kunda bizda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati shakllanganmi? Kelajakdagi aniq maqsadimiz uchun to'g'ri foydalana olyapmizmi? Like lar siz uchun ham ahamiyatlimi? Nima uchun ahamiyatli? Virtual hayot real hayotdan ko'ra nega qiziqarli qiz uchun? Ijtimoiy tarmoqlardan qanday maqsadlarda foydalanasiz? Foydalilar qaysi? Bekorchilari qaysi?

Ijtimoiy tarmoqlar inson psixologiyasiga yomon ta'sir o'tkazmasligi uchun nimalarga ahamiyat beryapmiz. Aytgan so'zlarimizga o'zimiz amal qilyapmizmi?

2-vazifa. She'rning filologik tahliliy jumbog'ini yechamiz. Ramziy tiliga diqqat qaratamiz. She'rda qo'llanilgan badiiy san'atlarni topamiz (Tepadagi jadvaldan foydalanish mumkin)

3-vazifa. Shoир aymoqchi bo'lgan fikrni umumiylashtiramiz. Kinoyani topamiz. Xulosa yasaymiz.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar Faxriyor she'rlari bilan yaqindan tanishar ekanlar o'zlari uchun yangicha qo'riqlar kashf eta olishadi. His-tuyg'u bu individual holat. O'qituvchi bu holatga ta'sir o'tkazishi qiyin. Ammo modern she'rlar orqali tasavvur sarhadlarini, tafakkur cho'qqilarini kengaytirish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Yangi asr avlod. 2006.7-bet.
2. Quronov S. Modern she'riyatda tasvir. //Yoshlik jurnali.2018 .9-son
3. Nazar Eshonqul, Izlash azobining totlari.Xurshid Davron kutubxonasi.
4. Niyozmetova R., Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent. Innovatsion ziyo. 2020. 233-bet
5. Ahmedov H. Istiqlol davri o'zbek adabiyotining nazariy masalalari. Toshkent. 2020. 23-bet.
6. Faxriyor. Ayolg'u. Toshkent. Sharq. 2000. 80-bet.



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATISH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

